


**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

*60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi*  
*bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari*

**Toshkent 2023**



### **ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

- Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

### **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil “7”  
08 dagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

### **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi</i> ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanishi .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	<i>60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	<i>60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar ....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....	7
2.3.1.	<i>Kvalifikatsiyasi</i> .....	8
2.3.2.	<i>60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi</i> bakalavr ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar .....	8
2.3.3.	<i>60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi</i> bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi .....	8
	Bibliografik ma'lumotlar .....	10
	Kelishuv varag'i .....	11



## **1. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining tavsifi**

**60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi hamda sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi**

Malaka talabi **60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma (bo'limi) boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi** – “Veterinariya” sohasidagi bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'lib, veterinariya tashkilotlarida mehnat faoliyatini tashkil etish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi veterinariya – sanitariya ekspertizasi laboratoriyalarida mehnat faoliyatini tashkil etish, mehnatni me'yorlash, aholini zooantroponoz kasalliklardan himoya qilish va oldini olish bo'yicha zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kushxonalar, chorva mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar, logistika markazlari, zaxira oziq-ovqat omborlari, dehqon bozorlari veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyalari, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiradigan korxonalar, savdo obyektlari va go'sht mahsulotlarini sifatini oshirishga oid masalalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- veterinariya tizimidagi jarayonlar, Respublika Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, davlat chegarasi va transportdagi davlat



veterinariya nazorat boshqarmasi, veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalari sifati va muomilasini nazorati bo'yicha davlat ilmiy markazi, viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari, shahar va tumanlarning veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat bo'limlari, respublika, viloyat, tuman va shaharlarning hayvonlar kasalliklariga tashxis qo'yish va oziq-ovqat xavfsizligi davlat markazlari hamda idoraviy, ishlab chiqarish va xususiy veterinariya xizmati tashkilotlari;

- logistika markazlari; chorvachilik va o'simlik oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar; dehqon bozorlari veterinariya sanitariya ekspertiza laboratoriyalari; zaxira oziq-ovqat omborlari, hayvonlar kasalliklari tashhisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazlari, ixtisoslashgan so'yish korxonasi va savdo obyektlari; mudofaa vazirligi, chegara qo'shinlari hamda bojxona qo'mitasi idoralari; zooveterinariya shaxobchalari, veterinariya uchastkalari va punktlari, davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorat punktlari; qishloq xo'jalik va uy hayvonlari, mo'ynali va yovvoyi hayvonlar, parrandalar, asalari, baliqlar va o'simlik oziq-ovqat mahsulotlari; veterinariya sanitariya ekspertizasida ishlatiladigan laboratoriya diagnostik asbob-uskunalari, ilmiy - tadqiqot jarayonlari; davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari; ilmiy-tadqiqot jarayonlari;

- 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertisasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayrlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

### **1.2.3. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertisasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *tadbirkorlik.*

### **1.2.4. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertisasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari**

60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertisasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga;

- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;



- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

- mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

- biokimyoviy, mikrobiologik va biotexnologik jarayonlar qo'llaniladigan ishlab chiqarishda, sog'liqni saqlash korxonalarida, qishloq xo'jaligida, qo'riqxonalarda, baliqchilik xo'jaliklarida va kasbiy faoliyatiga taalluqli zavod va korxonalarda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatish;

- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;

- ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;

- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

- ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

- veterinariya fani sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etish.

#### **Tadbirkorlik faoliyatida:**

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

## **2. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi,



tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- veterinariya obyektlarida strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

- odamlar va hayvonlar o'rtasida oziq-ovqat mahsulotlari orqali tarqaladigan kasalliklarini oldini olish chora – tadbirlarini ishlab chiqish va nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan veterinariya-sanitariya ekspertizasini amalga oshirish uquviga ega bo'lish;

- go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, yog', tuxum, asal, baliq, meva-sabzavot, poliz va don mahsulotlarini veterinariya-sanitariya ekspertisasi tekshirish ishlarini o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbir etish ko'nikmalariga ega bo'lish.

## **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar - bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari - ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisosligidan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.



### 2.3.1. Kvalifikatsiyasi - Veterinariya vrachi

2.3.1. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi bakalavr ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4860	162
Tanlov fanlar	1500	50
Malakaviy amaliyot	720	24
Davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.2. 60840400 – Veterinariya sanitariya ekspertizasi bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		<b>MAJBURIY FANLAR</b>	<b>4860</b>	<b>162</b>	
1.01	O'RT1106	O'zbek(Rus) tili	180	6	1
1.02	JTS1104	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	1
1.03	EAMM1104	Ekologiya va atrof-muhit muxofazasi	120	4	1
1.04	SAKT1104	Sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari	120	4	1
1.05	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.06	XT1204	Xorijiy til	120	4	2
1.07	BR1204	Biofizika va radiobiologiya	120	4	2
1.08	AFK1204	Analitik va fizkolloid kimyo	120	4	2
1.09	LTVA1204	Lotin tili va veterinariya atamalari	120	4	2
1.10	F1304	Falsafa	120	4	3
1.11	D1404	Dinshunoslik	120	4	4
1.12	LIA1106	Laboratoriya ishi asoslari	180	6	1
1.13	HA1108	Hayvonlar anatomiyasi	240	8	1,2
1.14	VKE1204	Veterinariyada kasb etikasi	120	4	2
1.15	HB1306	Hayvonlar biokimyosi	180	6	3
1.16	ZChBL1306	Zoogigiyena va chorvachilik binolarini loyihalash	180	6	3
1.17	HF1306	Hayvonlar fiziologiyasi	180	6	3
1.18	VMI1308	Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi	240	8	3,4
1.19	SGE1406	Sitologiya, gistologiya va embriologiya	180	6	4
1.20	HP1406	Hayvonlar patofiziologiyasi	180	6	4
1.21	VV1506	Veterinariya virusologiyasi	180	6	5
1.22	VFT1506	Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi	180	6	5
1.23	PIK1506	Parazitologiya va invazion kasalliklar	180	6	5

1.24	PAGYVSE 1606	Patologik anatomiya, gavda yorish va veterinariya sud ekspertizasi	180	6	6
1.25	VITEI1606	Veterinariya ishini tashkil etish, iqtisodi va qonunchiligi	180	6	6
1.26	VSE1606	Veterinariya sanitariya ekspertizasi	180	6	6
1.27	EIK1706	Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar	180	6	7
1.28	GGMVSE 1706	Go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya sanitariya ekspertizasi	180	6	7
1.29	TBXTE1806	Tovarshunoshlik, biologik xavfsizlik va tovarlar ekspertizasi	180	6	8
1.30	SVSE1806	Sud veterinariya sanitariya ekspertizasi	180	6	8
2.00		<b>TANLOV FANLARI</b>	<b>1500</b>	<b>50</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar (9 ta fan)</i>	<b>1500</b>	<b>50</b>	<i>1,4,5,6,7,8</i>
		<b>Jami</b>	<b>6360</b>	<b>212</b>	
		Malakaviy amaliyot	720	24	2,3,4,5,6,7,8
		Davlat attestatsiyasi	120	4	8
		<b>Jami</b>	<b>840</b>	<b>28</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat turi, kredit, modul, bakalavriat, o'quv reja, fan dasturi, o'quv jarayoni, malakaviy amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ta'lim sifati nazorati, profil, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, veterinariya ta'lim sohasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari, veterinariya va chorvachilik rivojlantirish bo'limlari, hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi, veterinariya sanitariya ekspertiza laboratoriyalari, qishloq xo'jalik hayvonlari, uy hayvonlari, mo'ynali hayvonlar, parrandalar, baliqlar, asalarilar, ekzotik va yovvoyi hayvonlar, yuqumsiz kasalliklar, infeksiyon kasalliklar, parazitlar kasalliklar, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, yog', tuxum, asal, baliq, meva-sabzavot, poliz va don mahsulotlari, diagnostik asbob-uskunalar, reaktivlar, biopreparatlar.



**KELISHUV VARAG'I**

**ISHLAB CHIQLDI:**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

Rektor  **X.B. Yunusov**

2023-yil " 20 " 07

M.O'.



**KELISHILDI:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi**

Direktor  **Sh. Yakubov**

2023-yil " 20 " 08

M.O'.




**O'zbekiston Respublikasi  
Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish  
qo'mitasi**

Rais  **B.T. Norqobilov**

2023-yil " 20 " 07

M.O'.



**Toshkent davlat agrar  
universiteti**

Birinchi prorektor  **S.Y. Islomov**

2023-yil " 20 " 07

M.O'.



**Andijon qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti**

Rektor  **K.S. Komilov**

2023-yil " 20 " 07

M.O'.




**Veterinariya ilmiy-tadqiqot  
instituti**

Direktor  **B.A. Elmurodov**

2023-yil " 20 " 07

M.O'.



**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar univerrisiteti 60840400-Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

**Samarqand sh.**

**“20” 07 2023-yil**

Biz quyida imzo chekuvchilar - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori X.B.Yunusov, Toshkent davlat agrar universiteti 1-prorektori S.Y.Islomov, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori K.S.Komilov, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi raisi B.T.Norqobilov, Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti direktori B.A.Elmurodov birgalikda SamDVMCHBUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**60840400-Veterinariya sanitariya ekspertizasi ta'lim yo'nalishi.**

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli, 2022-yil 21-dekabdagi “Yangi O'zbekistonda ma'muriy islohotlarni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida”gi PF-269-sonli Farmonlari va 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, 2020-yil 31-dekabdagi “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4939-sonli, 2022-yil 31-matrdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-187-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2021-yil 19-oktabrdagi ““Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, Asosiy qoidalar” O'zbekiston Respublikasining davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 35-2021-sonli va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida”gi 259-sonli buyruqlariga hamda oliy ta'lim sohasini



tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlariga, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Samarqand davlat veterinariya  
meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti  
rektori**



**X.B.Yunusov**

**Toshkent davlat agrar universiteti  
1-prorektori**

**S.Y.Islomov**

**Andijon qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti rektori**

**K.S.Komilov**

**Veterinariya va chorvachilikni  
rivojlantirish qo'mitasi raisi**

**B.T.Norqobilov**

**Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti  
direktori**

**B.A.Elmurodov**